

MAXSUS MAKTAB INTERNATLARIDA O'QUVCHILARNI INTERFAOL METODLAR ORQALI TARBİYALASH

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna, Qo`qon DPI dotsenti

E-mail: usmonovamuxlisaxon@gmail.com (ORCID 0000-0003-1603-9455)

Annotatsiya. Maqolada maxsus maktab internatlarida o`qitilayotgan Texnologiya fani mashg`ulotlarini samarali tashkil etish va ta`lim mazmunini loyihalashda samarali interaktiv metodlar va ulardan foydalanish metodikasi haqida so`z yuritilgan.

Tayanch so`zlar: ta`lim, faollikni oshirish metodi, daraxt metodi, ijodkorlik, tuzatuvchi-tarbiyalovchi, mustahkamlash, muloqot qilish, mehnat tarbiyasi, kasb-hunar, ilmiy-texnik taraqqiyot, metodika.

Abstract. The article talks about effective interactive methods and methods of their use in the effective organization of Technology classes taught in special boarding schools and the design of educational content.

Key words: education, method of increasing activity, tree method, creativity, corrective-educator, strengthening, communication, labor education, profession, scientific and technical development, methodology.

Аннотация. В статье говорится об эффективных интерактивных методах и методах их использования при эффективной организации занятий по технологии преподавания в специальных школах-интернатах и проектировании образовательного контента.

Ключевые слова: образование, метод повышения активности, метод дерева, творчество, коррекционно-воспитательный, закрепление, общение, трудовое воспитание, профессия, научно-техническое развитие, методика.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning sifatli ta`lim olishiga oid huquqlari mustahkamlab qo`yilgan. Jumladan, Konstitusiyaning 50-moddasida “Ta`lim tashkilotlarida alohida ta`lim ehtiyojlariga ega bo`lgan bolalar uchun inklyuziv ta`lim va tarbiya ta`minlanadi”⁶ deb belgilangan bo`lsa, “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunning 55-moddasida “Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo`lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalarida, umumiy o`rta, o`rta maxsus, professional ta`lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o`rta, o`rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta`lim olishini ta`minlaydi. Davlat ixtisoslashtirilgan ta`lim

⁶ O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son (<https://lex.uz/docs/6445145>).

muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi"⁷ deb belgilanishi jamiyatimizning g'oyatda insonparvarligidan dalolat beradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun texnologiya fanini o'rgatish, nafaqat akademik bilimlarni taqdim etish, balki ularni turmushda kerakli ko'nikmalar bilan ta'minlash, ijtimoiylashuvni osonlashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Bu maqolada texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish metodikasini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitishdan iborat. Aqli qoloq bolalarga xos umumiy nuqson – bilish jarayonlarining cheklanganligidir. Shu sababli, ular ta'lim-tarbiyasining rivojlanishida birinchi o'rinda bilish faoliyatini tuzatishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Shu ko'rsatkichni inobatga olgan holda Texnologiya fani mazmuni, usullari ochib beriladi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashishlari natijasida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy masalalari ijobiy hal etiladi, ya'ni ular ham normal tengdoshlari qatori dam oladilar, davolanadilar, ijtimoiy ta'minotdan foydalanadilar hamda jamiyatning teng huquqli fuqarolari sifatida yashaydilar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilariga bilim berish, tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda birinchi o'rinda ma'lum mehnat turlaridan bilim berish, ularda tegishli ko'nikma, malakalar shakllantirish turadi. Shunlardan kelib chiqqan holda Texnologiya fanining asosiy yetakchi vazifasi o'quvchilardagi nuqsonlarni tuzatishdir.

Texnologiya fanidagi barcha tuzatish ishlari qat'iy maqsad asosida izchil amalga oshirib borilishi kerak. O'quvchilarga biror narsani tayyorlash jarayonini tushuntirish asosida ayrim bilish faoliyatini amalga oshirib borilishi lozim. O'quvchilar bilish faoliyatini takomillashtirish va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish o'z-o'zidan ta'lim natijasi sifatida yuz bermaydi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan Texnologiya fani va tuzatish ishlariga taalluqli ta'lim jarayonida normal o'quvchilarning rivoji orasida o'xshashlik mavjud. Bunda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan rivojlantirish, tuzatish ruhida tashkil etilishi darkor⁸. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi tuzatish vazifalari umumijtimoiy vazifalar bilan bog'lab olib borilishi kerak. Bu borada fanning ijtimoiy va tuzatish vazifalari o'z navbatida bu ishning aniq, tashkiliy usul va shakllarini aniqlashga yordam beradi, o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, o'z navbatida, ma'lum ish turini tanlashni taqozo etadi. Bu maktabni bitirgan o'quvchilar asosan birinchi va ikkinchi toifali mutaxassis bo'lib yetishadilar. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'z o'quvchilariga sodda, tor soha bilimlarini berish bilan kifoyalanadi.

⁷ "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son.

⁸ Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Open Access Repository*, 9(11), 106-113.

Bularga temirchilik, duradgorlik, tikuv ishlari, sodda qishloq xo‘jalik mutaxassisliklari, maishiy ishlar kabilar kiradi⁹.

Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan Texnologiya fani mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va ta‘lim mazmunini loyihalashda samarali interaktiv metodlar va ulardan foydalanish metodikasi takomillashtirildi. Bunda ko‘p yillik tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan va olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida sinovdan o‘tkazilgan samarali interaktiv metodlardan foydalanildi.

1. “Faollikni oshirish” metodi.

Mazkur metod refleksiv metodlar turkumiga kiradi va odatda, undan darslarning so‘nggida yoki avvalida foydalanish mumkin. Bu metod uchun 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi. Kerakli o‘quv qurollari va jihozlar, didaktik tarqatmali materiallar tayyorlab olinadi.

“Faollikni oshirish” metodidagi topshiriq asosan quyidagi savollar asosida tashkil qilinadi:

1. Eslab ko‘ring!
2. Esimda qoldi.
3. Qo‘llayman.

Eslab ko‘ring! Ushbu qismda o‘quvchilardan avvalgi darsda yodida qolgan kamida 3 ta ma‘lumotni yozishlari yoki eslab aytib berishlari so‘raladi.

Esimda qoldi. Bu yerda o‘tilgan yangi dars davomida o‘quvchilar uchun muhim bo‘lgan kamida 2 ta ma‘lumotni yozishlari yoki eslab aytib berishlari kerak bo‘ladi.

Qo‘llayman. Ushbu qismda o‘quvchilar darsdan olgan qaysi bir xulosa yoki muayyan bir fikr, holat yohud epizodni aynan amaliyotda – hayotda “albatta, qo‘llayman” deb belgilagan ma‘lumotlarini yozishlari yoki aytib berishlari kerak.

Ushbu metodni o‘quvchilarlar o‘z daftarlarida yakka tartibda, yozma tarzda bajarishlari lozim bo‘ladi.

Bu metodi orqali darsdagi ma‘lumotlar takrorlanadi, mustahkamlanadi va ko‘pgina hollarda o‘quvchilarlar boshqa ishtirokchilarning tahlillari yordamida o‘z bo‘shliqlarini to‘ldirib, kamchiliklarini to‘g‘rilab olishlari mumkin bo‘ladi.

Bu metoddan foydalanishni Texnologiya 5-sinf darsligida berilgan quyidagi mavzu misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘tilgan mavzu. Daraxt turlari va ularning xususiyatlari.

Eslab ko‘ring!

3 ta ma‘lumot: yog‘och, igna bargli, yaproq bargli.

Yangi mavzu. Yaproqli va igna bargli daraxtlarni amalda qo‘llash.

Esimda qoldi.

2 ta ma‘lumot:

1-rasmda berilgan yaproqli va igna bargli daraxtlarni turlarga ajrating.

⁹ Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS



1-rasm. Yaproqli va igna bargli daraxtlar.

2-rasmda berilgan daraxt barglari yaproqli va igna bargli daraxtlarni qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlang.



2-rasm. Yaproqli va igna bargli daraxt barglari.

Qo‘llayman. Maktab hovlisida bor bo‘lgan daraxtlarni yaproqli va igna bargli daraxtlarga ajrata olishni bilib oldim. Maktabdan uyga qaytishda yo‘ldagi daraxtlarni va hiyobonlardagi daraxtlarni ajrata olaman. Yaproqli va igna bargli daraxtlarni ajratishni bilib oldim va “albatta, ularni ajrata olaman” deb ishonch bilan ayta olishadi.

Bu metoddan foydalanish o‘quvchilarda:

- o‘quvchilarlarga o‘tilgan darsni yodga olishga, uni xotirada yana bir bor takrorlab, mustahkamlab olishga yordam beradi;
- ularda batafsil tahlil qila olish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- nazariy ma‘lumotni amaliyot bilan bog‘lay olish tajribasi shakllanadi;
- o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi;
- ma‘lumotlarni analiz va sintez qila olish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

Bu metoddan foydalanish orqali o‘qituvchi quyidagi natijalarga erishadi:

- ✓ o‘tilgan mavzuni qiziqarli va oson takrorlatib olish hamda mazkur mavzu yuzasidagi o‘quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlab olish mumkin;
- ✓ o‘quvchilarlar ko‘p takrorlagan va ularning etiborini tortgan, yodida qolgan ma‘lumotlarni aniqlab olish va shu tariqa ularning o‘zlashtirishlarini o‘rganish, tahlil qilish;
- ✓ darsda o‘quvchilar ko‘p ham aytib o‘tmagan mavzuga oid eng muhim ma‘lumotlarni, ya‘ni darsda davomida ularning bilimlaridagi bo‘shliqlarni korrektsiyalash;
- ✓ o‘quvchilarni ma‘lumotlarni analiz qila olishga o‘rgatish va analiz qilish imkoniyatlarini aniqlab olish;

✓ darsning muayyan yutuq va kamchiliklarini o‘rganish hamda keyingi dars jarayonini tashkil etishda ushbu ma’lumotlardan samarali foydalangan holda darsni yanada qiziqarli, foydali va maqsadli amalga oshirishda yordam beradi¹⁰.

2. “Daraxt” metodi.

Bu metod uchun 6-8 daqiqa vaqt ajratiladi. Kerakli o‘quv qurollari va jihozlar, didaktik tarqatmali materiallar tayyorlab olinadi.

Daraxtning juda ko‘p shakli mavjud. Baland, past, manzarli, mevali, mevasiz, butali. Ta’limda ham bu metodning shakli juda ham ko‘p va bu shakllar pedagogik maqsadlarga ko‘ra o‘zgarib boradi. Shu bois, taqdim etilayotgan shakli esa maqsadni aniq belgilab olishga qaratilgandir. O‘ylab ko‘ring, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga bu metoddan foydalanib dars o‘tishingizdan sizning maqsadingiz nima? Balki sizning javobingiz:

“O‘quvchilarni dars jarayoniga yanada qiziqitira oladigan metodlardan foydalanish”dir. Yana bir savol, bir kunda o‘z oldingizga necha marta maqsad qo‘yasiz?

Hayotimizda maqsadlar va ularni to‘g‘ri qo‘ya olish juda muhim. Bu metodning quyidagi maqsadga yo‘naltirilgan shaklini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida tashkil qilinayotgan Texnologiya fanida qo‘llashdan maqsad shuki, inson hamma qilishi zarur bo‘lgan ishlarni o‘z yodida saqlay olmaydi. Muayyan bir yumush, vazifa, yoki Siz qilishingiz lozim bo‘lgan qandaydir bir topshiriq esingizdan chiqsa, demak bilingki, Sizning foydalilik natijangiz tushib ketadi. Lekin uni esingizdan chiqmaydigan qilib yozib qo‘ysangiz, nimagadir qayd qilib borsangiz natijangiz, ya’ni foydalilik darajangiz yuqori bo‘ladi. Maqsadlar ham aynan shunday. Yana shunday narsa borki, “vaqtni boshqarish” (time management), ya’ni vaqtni to‘g‘ri boshqarish madaniyati. Bu hozirgi zamonaviy dunyo, shiddatli XXI asr uchun juda ham muhim hisoblanadi Ta’lim jarayonida esa vaqtni to‘g‘ri boshqarib, maqsadlarni aniq belgilab olish darslarni samarali va interaktiv tashkil etishga yordam beradi.

Agar bir kuningizga, bir haftangizga, bir oyingizga bir yilingizga maqsad qo‘ysangiz, albatta, o‘z sohangizning mutaxassisiga aylanasiz. Lekin maqsad qo‘ymasdan, bemaqsad, rejalarsiz yashaydigan bolsangiz, bu oxir-oqibat, o‘zingizga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga, qilayotgan ishingizdan va uning natijasidan qoniqmaslikka olib keladi. Endi o‘quvchilarni ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni tasavvur qilib ko‘ring. Ularda o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘ya olish ko‘nikmasini shakllantirish kelajakdagi faoliyatlari va muvaffaqiyatlari uchun ko‘zlangan natijalarga erishishlarida birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bunday kelajak avlod maktabni bitira turib “Qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisan?” degan savolingizga hech ikkilanmay aniq javob ayta oladi va o‘z kelajagini, o‘zi zabt etadigan marralarni aniq tasavvur qila oladi.

Ushbu daraxt metodi birinchi bo‘lib, Amerikada iqtisodiyot sohasida qo‘llanilgan. Hozirda bu metodning turlicha shakllaridan dars jarayonida faol

¹⁰ Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 114-119.

qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu metodning turlicha nomlari bor. Misol uchun, “Omad daraxti”, “Oila daraxti”, “Gapiruvchi daraxt”, “Shajara daraxti”, “Bilimlar daraxti” kabi. Bu metoddan qaysi maqsadda foydalanilsa, “daraxt” so‘zidan keyin shu nomni qo‘yib nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi daraxt nomi “Maqsadlar” deb nomlanadi. Ushbu metod orqali darsimizda maqsad qo‘yishni o‘rganamiz. Siz jarayonni quyidagicha tashkil etishingiz kerak. Demak, ishtirokchilarga bu daraxt oddiy daraxt emasligini va bu bugun “Maqsadlar daraxti” ekanligini aytamiz. Ularga rangli olma yoki barg shakllaridagi maxsus yopishtirgich qog‘ozlar (stikerlar) tarqatiladi. Dars mavzusi va qisqacha rejasi bilan tanishtiriladi. So‘ngra ishtirokchilarga topshiriq aytiladi: Bugungi darsdan yoki mavzuni o‘rganishdan maqsadingiz nima? Qo‘lingizdagi stikerlarga yozing. Buning uchun 2 daqiqa vaqtingiz bor. O‘quvchilar darsdan kutayotgan, o‘rganishni xohlagan bilim, ma‘lumot, yoki qandaydir hodisani bir jumla, yoki so‘z ko‘rinishida stikerlarga yozishlari va ushbu stikerlar bilan “Maqsadlar daraxtini” bezashlari, ya‘ni to‘ldirishlari lozim. Bunda ushbu maqsadlarni daraxtga “yopishtirish” oldidan o‘qib eshittirishlari maqsadga muvofiq.

O‘quvchi xoh ikki qatorli jumla, xoh bir donagina so‘z yozsin. Muhimi, maqsad qo‘yishni anglasin. Ayrim o‘quvchilar birinchi kun yoza olishmas. Lekin topshiriqni bajargan tengdoshlari yozgan maqsadlarini eshitib, Ikkinchi kuni yaxshiroq javob berishga harakat qilishadi. Keyingi darslardan boshlab esa, albatta, o‘z maqsadlarini ifoda etib bera olishadi va eng muhimi, o‘zlarining oldiga maqsad qo‘yishni o‘rgana boshlashadi. Katta-katta natijalarga erisha oladigan kichik-kichik insonlarni biz sekin-asta ana shunday tarbiya qilib boramiz.

Bugungi kunda maqsadli ta‘lim juda ham muhimligini e‘tiborga olsak, ushbu metod orqali o‘quvchilarga har bitta darsda o‘z oldilariga maqsad qo‘yishni va unga to‘g‘ri erishishni aynan shu usul yordamida yanada samarali o‘rgatgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son (<https://lex.uz/docs/6445145>).

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).

3. Ayupova M.Y. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011

4. Axundov N., Axmedov G. i dr. Texnologiya 5: Uchebnik po predmetu Texnologiya dlya 5-go klassa obsheobrazovatelnix shkol. – Baku: «ASPOLIQRAF», 2017.-80 s.

5. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Open Access Repository*, 9(11), 106-113.

6. Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 21(1), 41-44.

7. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.

8. SOBIROVNA, U. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education.

9. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81..

10. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

11. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

12. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.

13. Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 114-119.

14. А.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. *Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)*

15. Мухитдинова, Ж. Р. (2023). РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕХНОЛОГИИ ШИТЬЯ. *Проблемы современного образования*, (2), 240-253.

16. А.Маткаримов Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. *Достижения науки и образования 2017.- №6 (19)*